

**PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF STUDYING THE
INFLUENCE OF POPULAR CULTURE ON ADOLESCENT EDUCATION
AND ITS ELIMINATION.**

Saliyeva Dilorom Abdullayevna - Candidate of Psychology, Associate Professor, Department of Applied Psychology, Kokan State Pedagogical Institut

Abstract: In the article, the study of the negative impact of mass culture on the education of adolescents and the psychological possibilities of its elimination, the prevention and correction of negative character traits of young people, defects in their behavior, the current abundance of information flow, the negative effects of the Internet on the personality of young people are discussed in the article. , the influence of mass culture, these reasons are studied by psychologists, their experimental analysis is presented.

Key words: mass culture, adolescents, education, psychological possibilities, empathy, emotional attitude, personality orientation, adaptation, character, Internet, national spirit, society.

KIRISH.

Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta`lim olishi masalalari, davlat siyosati maqomi darajasida jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda uning ma`lum bir yosh davridagi psixologik xususiyatlari eng muhim hisoblanadi. Biz yoshlarga ustozlarimiz qanchalik kuyinib ta`lim – tarbiya berishmasin, hayotimizda tarbiyasisiz yoshlar ham uchrab turadi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, yoshlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy - tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatlarda anglashilmovchilikni bartaraf qiladi, iliq psixologik iqlimni yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI:

Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol pok bo'lishi, o'z mehnati bilan hayot kechirishli bo'lishi kerakligi, sabr qanoatli bo'lishni, kamtar samimiy bo'lishni iymon va e'tiqodini mustahkam tutishi dilda xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga bo'lish kabi olujanob xislatlarni tarkib toptirish yotadi. Bu xislatlarni egallab berish jarayonida inson poklana boradi va ruhan Allohga yetishishga o'zini tayyorlaydi.

Farobiy nazariy bilimlarini egallahsga kirishgan har bir kishi xulq odobda hali qay darajada pok bo'lishi kerakligini "Falsafani o'rgatishdan oldin nimani bilishi kerakligi to'g'risida"gi risolasida shunday ta'riflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada tadqiqot ishi mohiyatidan kelib chiqqan holda N.G'.Kamilova tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan "Deviant xulq - atvor tashxisi" metodikasidan foydalanildi. O'spirin yoshdagagi bolalarning axloqida ommaviy madaniyatni shakllanganligi yoki xulqi og'shganlikga moyillikni aniqlashning universal metodikasi "Og'ishgan xulqqa moyillikni tashxisini qilish metodikasi" hisoblanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O'spirin yoshdagagi bolalarning axloqida ommaviy madaniyatni shakllanganligi yoki xulqi og'shganlikga moyillikni aniqlashning universal metodikasi "Og'ishgan xulqqa moyillikni tashxisini qilish metodikasi"dan foydalanildi. Metodika natijalari umumlashtirilib, jadvalda aks ettirildi.

Har qanday jamiyatning kelajagi, yosh avlodning qanday ta'lim-tarbiya olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Shunday ekan, barkamol avlodgina mamlakat oldida turgan umum davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo'lib, o'z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Komil insonni tarbiyalash shundaki, unda to'rtta xususiyat yani yaxshi so'z, yaxshi fel, yaxshi axloq, ma'orif

va madaniyat kamolga yetishi lozim. Prizedentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Farzandlarimiz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb va hunarni egallagan, sog’lom xayotiy pozitsiyalarga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o’zining dolzarbligini yo’qotmaydigan masala hisoblanadi,”¹ –deb ta`kidlaganlari bejiz emas.

Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta’lim olishi masalalari, davlat siyosati maqomi darajasida jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda uning ma’lum bir yosh davridagi psixologik xususiyatlari eng muhim hisoblanadi. Biz yoshlarga ustozlarimiz qanchalik kuyinib ta’lim – tarbiya berishmasin, hayotimizda tarbiyasisiz yoshlar ham uchrab turadi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, yoshlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta`limiy - tarbiyaviy tadbirlarni qo’llash shaxslararo munosabatlarda anglashilmovchilikni bartaraf qiladi, iliq psixologik iqlimi yaratadi. “Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da`vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.”²

Hozirgi kunda yoshlar taqdiri masalasi g’oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlik davri muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o’spirin o’g’il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur. Hozirgi kunda bunday yoshlarning xarakteridagi salbiy xislatlarini, hatti-harakatlaridagi nuqsonlarni oldini olish va

¹ Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”-2017

² Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. - T., 2017

tuzatish yetarlicha ilmiy asosda ishlab chiqishga harakat qilingan bo'lib, hozirda axborot oqimining ko'pligi, internetning yoshlar shaxsiga salbiy ta'sirlari muammoning xal qilinmagan tomonlarini ko'paytirib bormoqda.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda ana shu jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar mavjud bo'ladi. Shu qoidalar asosida jamiyat yashaydi, rivojlanadi va ravnaq topadi. Me'yyorlardan chetga chiqish, ularga amal qilmaslik ijtimoiy og'ishganlik yoki deviant xulq-avtor bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda milliy madaniyatimiz umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish hisobiga boyimoqda. Shu bilan birga madaniyatimiz tarixiy-milliy, diniy va falsafiy negiziga qaytmoqda. Bu borada hukumatimiz yuritayotgan siyosat tufayli ma`naviy va ma'rifiy merosimizni o'rganish faxr iftixorga aylandi.

Buyuk allomalarimiz va tarixiy siymolarimizning ilmiy-madaniy merosi qayta tiklanayotgani, ona tilimizga, muqaddas dinimizga munosabat o'zgargani ma`naviyatimizga kuch - quvvat baxsh etadi. Bu esa kelgusi taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Inson ma`naviyati va tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan "ommaviy madaniyat" masalasi ham bugungi kunda juda dolzarb bo'lib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlamoq joizki, global olam muammolari hali bizga taaluqli emas deguvchilar qattiq adashadi. Kecha faqat qulooqqa aytish mumkin bo'lgan gaplar bugun ochiq oshkora oila davrasida, hatto ommaviy axborot vositalarida muhokama qilinayotgani milliy qadriyatlarimiz chegarasini buzib kirishga jiddiy urinayotganining yaqqol dalilidir. Odatda, bu masalaga yechim sifatida tarbiya milliy bo'lishi zarurligi yoshlarni milliy ruh asosida voyaga yetkazish lozimligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Buning uchun to'liq ma`noda milliy ruhni o'zida mujassam etgan jamiyatning intellektual elitasini shakllantirish zarur. "Ommaviy madaniyat" niqobidagi tushunchalar bilan umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi tafovutni nozik ilg'ash muhimligini ta'kidlash zarur.

Sharq allomalarimiz tomonidan qoldirilgan merosda komil insonini tarbiyalash unga xos sifat va xususiyatlarni tarbiyalash muammosi atroflicha asoslab

berilgan. Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol pok bo'lishi, o'z mehnati bilan hayot kechirishli bo'lishi kerakligi, sabr qanoatli bo'lishni, kamtar samimiy bo'lishni iymon va e'tiqodini mustahkam tutishi dilda xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga bo'lish kabi olivjanob xislatlarni tarkib toptirish yotadi. Bu xislatlarni egallab berish jarayonida inson poklana boradi va ruhan Allohga etishishga o'zini tayyorlaydi.

Farobiy nazariy bilimlarini egallahsga kirishgan har bir kishi xulq odobda hali qay darajada pok bo'lishi kerakligini "Falsafani o'rgatishdan oldin nimani bilishi kerakligi to'g'risida"gi risolasida shunday ta'riflaydi.

"Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni hirs - havaslardan shunday tozalanishingiz mumkin sizda maishiy va shahvoniy kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so'ng xato va adashishdan saqlovchi haqiqat yo'lni tushunib olishga boshlovchilar (notiq so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsni, jonini, ruhini tozalash zarur"³.

"Ommaviy madaniyat" hodisasining salbiy ko'rinishlarini yoritilgan maqolalar tahlil qilishda, ularning ko'targan muammosi, mavzusi, dolzarbligiga qarab bir necha yo'nalishda ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib bosma va ommaviy axborot vositalarida "ommaviy madaniyat"ning salbiy ko'rinishlarini quyidagi yo'nalishlarda taxlil qilib o'rgan zarur. Bular:

1. "Ommaviy madaniyat" tushunchasining umumiyligi mohiyati va uning jamiyatga ko'rsatadigan salbiy ta'siriga bag'ishlangan maqolalar;
2. Yoshlar o'rtasida kompyuter va internet o'yinlari va saytlarning "ommaviy madaniyat"ning rivojlanishiga ta'siri tik tok, prank hamda yoshlarning g'ayri axborot domiga tushib qolayotganiga bag'ishlangan chiqishlar;

³ Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma'sul muharrir: A.Jalolov. – T: «Yozuvchi», 2001. – 64b.

3. Yoshlar orasida paydo bo'lgan gotlar, exolar, panki, xippi, taqirboshlar kabi oqimlarning yoki "bodi-art" kabi submadaniyatning ommalashishiga bag'ishlangan maqolalar;
4. Yoshlarning modaning ketidan ko'r-ko'rona ergashishlari orqali kiyinish odobining izdan chiqishi va buning yoshlar tarbiyasida qanday aks etayotganiga bag'ishlangan maqolalar;
5. "Ommaviy madaniyat"ni rivojlanishiga ochiq axborot vositalarining roli va o'rni qanday bo'lishi kerakli xususidagi maqolalar.

Televidenieda "Ommaviy madaniyat"ning yoshlarimiz ma`naviy axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida tez-tez ko'rsatuvar namoyish etib borilishi, radioda shu mazmunda eshittirishlar olib borilishi, gazeta va jurnallarda "Ommaviy madaniyat" illatlari haqida maqolalar chiqarilishi, bundan tashqari, har bir ota-onas, shuningdek, mahalla-kuy, ta'lim-tarbiya maskanlaridagi o'qituvchi-murabbiylar ham yoshlarimizga "Ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlari olib borishlari, "Ommaviy madaniyat"ning zararli illat ekanligi mazmunida uchrashuvlar tashkil qilinishi yoshlarimizni "Ommaviy madaniyat"ning zararli ta'sir va oqibatlaridan himoya qilishi borasidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Tadqiqot ishimizning mohiyatidan kelib chiqqan holda N.G'.Kamilova tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan "Deviant xulq atvor tashxisi"⁴ metodikasidan foydalanildi. O'spirin yoshdagagi bolalarning axloqida ommaviy madaniyatni shakllanganligi yoki xulqi og'shganlikga moyillikni aniqlashning universial metodikasi "Og'ishgan xulqqa moyillikni tashxisini qilish metodikasi" hisoblanadi. U etti shkalada iborat.

- 1.Ijtimoiy hohishga yo'naltirilgan
- 2.Me'yor va qoidalarni buzishga moyillik
3. Addektiv axloqqa moyillik

⁴ Komilova N. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" T. 2014. 74-78-91-b

4.O’z o’ziga zarar keltiruvchi va o’zini o’zi parchalovchi axloqqa moyillik

5.Tajovuzkorlik va zo’ravonlikka moyillik

6.Hissiy reaktsiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi

7.Delinkvent axloqqa moyillik

Mazkur metodika tanlab olingan xulqi og’ishgan 65 nafar o’spirinlarda o’tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

Deviant xulq atvor tashxisi metodikasi bo'yicha natijalar tahlili.

Nº	Shkalalar	Xulqi og’ishgan o’spirinlar
1	Ijtimoiy hohishga yo’naltirilgan	14.8%
2	Me’yyor va qoidalarni buzishga moyillik	20.4%
3	Addiktiv axloqqa moyillik	23.4%
4	O’z o’ziga zarar keltiruvchi va o’zini o’zi parchalovchi axloqqa moyillik	16.7%
5	Tajovuzkorlik va zo’ravonlikka moyillik	29.7%
6	Hissiy reaktsiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi	16.5%
7	Delinkvent axloqqa moyillik	28.9%

Tadqiqotda ishtirok etayotgan sinaluvchilarning natijalariga asosiy e’tibor beradigan bo’lsak, ijtimoiy hohishga yo’naltirilganlik 14,8% ni tashkil qilib ularda jamiyat jabhasiga yo’nalganlik bir muncha ustuvorligi bilan belgilanadi.

Me’yor va qoidalarni buzishga moyillik 20.4 %ni tashkil qilib ularda umumiylamiyat tomonian qabul qilingan qoidalarni tan olmaslik va bo’ysunmaslik holatlari uchrashi xos bo’lib bu xususiyatning ustivor ekanligi ommaviy madaniyatga moyillikning borligida ko’rinadi. Addiktiv axloqqa moyillik sinaluvchilar orasida 23.4 % ni tashkil qilib, ularda bir muncha xulqi og’ishga moyillikni mavjudligi bilan

ajralib turadi. O'z o'ziga zarar keltiruvchi va o'zini o'zi parchalovchi axloqqa moyillik 16.7% ni tashkil qilib, ular har qanday narsadan foyda bilan zararni his qiladilar. Sinaluvchilar orasida tajovuzkorlik va zo'rovonlikka moyillik 29.7% ni tashkil qiladi bu esa ulara zo'ravonlik bosim o'tkazish kabi xolatlarni mavjudligidan dalolat beradi. Hissiy reaktsiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish sinaluvchilar orasida 16.5% ni tashkil qilib bu shaxsdagi o'zini o'zi nazorat qilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Delinkvent axloqqa moyillik 28.5 %ni tashkil qilib ularda atrofdagilardan farqli ravishda xulqdagi og'ishlar kuzatilishi mumkin.

Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, ularda xulq - atvorda me'yyordan og'ishish holatlari mavjudligi ularning itimoiy muhitning me'yyor va qoidalarini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa xulqi og'ishganlik bilan birga ommaviy madaniyatga moyillikning ko'rinishlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Voyaga yetmagan yoshlarda axloqiy buzilishning oldini olishda o'spirinning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishi, o'spirinlik davrida shaxs sifatlari bilan ham belgilanishi mumkin.

1. Yoshlarning o'z xulq-atvori va xatti-harakatlarini nazorat qilish va boshqara olishi ularning xulqidagi og'ishlarni oldini olishiga imkon yaratish;
2. Yoshlarda ommaviy madaniyatni rivojlanishi ota - onaning bola tarbiyasiga e'tiborsizligi, diniy qadriyatlarning yetishmasligi natijasidir;
3. O'spirinning o'ziga, atrofdagilarga, voqe'a - hodisalarga munosabati, dunyoqarashi, irodaviy sifatlari, hissiy holatlari xavotirlanish, hissiy zo'riqish va boshqa kechinmalari unda turli antijitmoiy ehtiyojlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi.
4. O'spirin shaxsidagi mavjud ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatining cheklanganligi o'rtasida qarama - qarshilik ularda xulqi og'ishganlikka moyillikni vujudga keltiradi.

5. Yoshlarda shakllangan xarakter aktsentuatsiyasi tipi va barqaror shaxs xususiyatlari ta'sirida o'zini o'zi tasdiqlash, o'z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlari ham ularni jamiyat qonun-qoidalarni buzish harakatini sodir etishga undaydi.

6. Ommaviy madaniyatning shakllanishida ijtimoiy omillarning, xususan o'zini o'zi anglashning ta'siri yuqori bo'lganligi sababli ular bilan olib boriladigan tizimli va uzoq muddatli korrektsion va profilaktik ishlarni o'tkazish yaxshi samara beradi.

7. O'quv faoliyatidagi turli ziddiyatli holatlar, darsga tayyor emaslik o'qituvchi bilan bo'ladijan munosabatlardagi noxushliklar, tengdoshlar davrasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilish ham ijtimoiy normalarni buzilishiga olib keladi.

9. Yoshlarning mustaqil fikrga, dunyoqarash, e'tiqodga ega emasligi, shaxs sifatida mustaqillik sifatini tarkib topmaganligi ularda xulqi og'ishganlikni keltirib chiqarishi mumkin:

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlar xulqida ommaviy madaniyatni yuzaga keltirayotgan salbiy o'zgarishlarning oldini olishda maktab va oila hamkorligini yuzaga keltirish, oila muhitini sog'lomlashtirish hamda o'spirin shaxsining ota - onalari bag'rida tarbiyalanishiga shart - sharoit yaratish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" T-2017
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T., 2017.

3. Психологические основы индивидуального подхода к трудновоспитуемым подросткам. /Метод. Пособие в вопр . и отв., Киев, 2007. 86 с.
4. Komilova N. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" T. 2014. 74-78-91-b
5. Salieva, D. A. "Psychological peculiarities of the influence of motivation on the learning independence of the student of young school." *EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues* 8.3 (2020): 87-90.
6. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characterstics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal ofPositive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.
7. Salieva, Dilorom Abdullaevna, and Karas Orzhanovich Kaziev. "THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 756-760.
8. Салиева, Д. А. "К вопросу о психологических возможностях развития учебной самостоятельности в младшем школьном возрасте." *Актуальные проблемы современной науки* 5 (2013): 117-119.
9. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451